

2024-yil yanvar-fevral oylari uchun
dastlabki ma'lumot



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(66) 235-65-80



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-fevral oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **470,8 mln. AQSh** dollariga yetdi va 2023-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **102,3 mln. AQSh** dollariga yoki **27,7 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

yanvar-fevral, mln. AQSh dollar



Tashqi savdo aylanmasi

2024-y. **470,8** **+27,7 %**
(2023-y. **368,6**)



Saldo

2024-y. – **259,9**
(2023 y. – **204,4**)



Eksport

2024-y. **105,5** **+ 28,5 %**
(2023-y. **82,1**)



Tovarlar: **98,8**



Xizmatlar: **6,7**



Import

2024-y. **365,3** **+27,5%**
(2023-y. **286,5**)



Tovarlar: **364,5**



Xizmatlar: **0,8**

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.




TSAda eksport hajmi **105,5** mln. AQSh dollariga (**28,5** % ga ko‘paydi) va import hajmi **365,3** mln. AQSh dollariga (**27,5** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida – **259,9** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR

2024-yil yanvar-fevral mln. AQSh dollari va ulushi, foizda



<p>Rossiya</p> <p>TSA – 124,3</p> <p>Eksport: 32,6 Import: 91,7</p> <p> 26,4 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 110,0</p> <p>Eksport: 13,6 Import: 96,4</p> <p> 23,4 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 39,4</p> <p>Eksport: 10,2 Import: 29,2</p> <p> 8,4 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 35,4</p> <p>Eksport: 7,4 Import: 28,0</p> <p> 7,5 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 12,9</p> <p>Eksport: 0,9 Import: 12,0</p> <p> 2,4 %</p>
<p>Hindiston</p> <p>TSA – 11,3</p> <p>Eksport: 1,7 Import: 9,6</p> <p> 2,4 %</p>	<p>Sloveniya</p> <p>TSA – 11,3</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 11,3</p> <p> 2,4 %</p>	<p>Tojikiston</p> <p>TSA – 10,7</p> <p>Eksport: 9,5 Import: 1,2</p> <p> 2,3 %</p>	<p>BAA</p> <p>TSA – 9,7</p> <p>Eksport: 6,4 Import: 3,3</p> <p> 2,1 %</p>	<p>Polsha</p> <p>TSA – 9,1</p> <p>Eksport: 0,7 Import: 8,4</p> <p> 1,9 %</p>













SAMARQAND VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

yanvar-fevral, mln. AQSh dollari

Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Rossiya Federatsiyasi	64,7	90,8	124,3
 Eksport	21,1	27,4	32,6
Import	43,7	63,4	91,6
Xitoy Xalq Respublikasi	57,4	58,6	110,0
 Eksport	6,9	5,4	13,6
Import	50,5	53,2	96,4
Qozog'iston	55,6	47,4	39,4
 Eksport	8,9	9,9	10,2
Import	46,7	37,5	29,2
Turkiya	28,1	31,8	35,4
 Eksport	11,4	6,4	7,4
Import	16,7	25,4	28,1
Germaniya	6,0	5,8	12,9
 Eksport	0,5	0,4	0,9
Import	5,5	5,4	12,0
Hindiston	8,0	5,8	11,3
 Eksport	0,2	0,0	1,7
Import	7,8	5,8	9,6
Sloveniya	10,1	14,2	11,3
 Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	10,1	14,2	11,3
Tojikiston	10,6	10,7	10,7
 Eksport	10,1	9,9	9,5
Import	0,5	0,8	1,2
BAA	1,0	1,3	9,7
 Eksport	0,8	0,6	6,4
Import	0,2	0,7	3,2
Polsha	4,9	9,9	9,1
 Eksport	0,9	0,6	0,7
Import	4,1	9,2	8,4




Davomi

Davlatlar	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Litva	6,3	6,0	7,3
 <i>Eksport</i>	0,6	0,9	0,4
<i>Import</i>	5,7	5,1	6,9
Yaponiya	8,1	9,9	6,3
 <i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
<i>Import</i>	8,0	9,9	6,3
Eron	8,8	7,8	6,0
 <i>Eksport</i>	0,7	0,6	1,2
<i>Import</i>	8,1	7,2	4,8
Ozarbayjon	3,6	3,1	5,7
 <i>Eksport</i>	3,4	2,6	4,4
<i>Import</i>	0,2	0,5	1,4
Gruziya	5,3	4,8	5,6
 <i>Eksport</i>	0,8	0,8	0,6
<i>Import</i>	4,5	4,0	4,9
Latviya	3,6	5,5	5,4
 <i>Eksport</i>	0,3	0,3	0,2
<i>Import</i>	3,3	5,2	5,2
Qirg'iz Respublikasi	6,0	3,5	4,7
 <i>Eksport</i>	5,7	3,2	3,8
<i>Import</i>	0,3	0,3	0,9
Avstriya	1,9	3,0	4,4
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,1
<i>Import</i>	1,9	3,0	4,3
Bangladesh	3,4	3,9	3,8
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	3,4	3,9	3,8
Belarus Respublikasi	7,0	2,2	3,5
 <i>Eksport</i>	2,3	1,4	1,2
<i>Import</i>	4,7	0,8	2,3



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

2024-yil yanvar-fevral, mln. AQSh doll. ¹



2023-y.


2024-y.

ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulush Samarqand shahri (57,7 % yoki 171,7 mln. AQSh dollar), eng quyi ulush esa Qo'shrabot tumani (0,04 % yoki 0,2 mln. AQSh dollar) hissasiga to'g'ri keldi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

yanvar-fevral, mln. AQSh dollari



2024-yilning yanvar-fevral oylarida, Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasining **41,3 %** ulushi MDH davlatlariga to'g'ri kelib, tashqi savdo aylanmasidagi 2023-yilning mos davriga nisbatan ulushi **2,7 %** ga kamaygan.



Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024-yilning yanvar-fevral oylarida 2023-yilning mos davriga nisbatan **2,7 %** ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **58,7 %** ni tashkil etdi.

Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024-yil yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra, **194,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport **64,6** mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import **129,9** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.



SAMARQAND VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

2024-yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari

Rossiya

TSA – 124,3
Eksport – 32,6
Import – 91,6



Qozog'iston

TSA – 39,4
Eksport – 10,2
Import – 29,2



Tojikiston

TSA – 10,7
Eksport – 9,5
Import – 1,2



Ozərbayjon

TSA – 5,7
Eksport – 4,4
Import – 1,4



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 4,7
Eksport – 3,8
Import – 0,9



Belarus Respublikasi

TSA – 3,5
Eksport – 1,2
Import – 2,3



Ukraina

TSA – 2,7
Eksport – 1,4
Import – 1,3



Turkmaniston

TSA – 2,7
Eksport – 1,1
Import – 1,5



Armaniston

TSA – 0,5
Eksport – 0,2
Import – 0,3



Moldova


TSA – 0,5
Eksport – 0,3
Import – 0,2




Samarqand viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (63,9 %), Qozog'iston (20,3 %) hamda Tojikiston (5,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.

SAMARQAND VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

2024 -yil yanvar-fevral, mln. AQSh dollari, ulushi foizda



 Samarqand viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **172,3** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **48,0** mln. AQSh dollari, import hajmi esa **124,3** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YeOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



SAMARQAND VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Viloyatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar tomonidan **105,5** mln. AQSh dollari qiymatidagi (2023-yilning mos davriga nisbatan **128,5 %** ni tashkil etdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



XSST¹ BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

2024-yil yanvar-fevral, ulushi foizda



O‘zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o‘rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o‘rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

yanvar-fevral, yillar kesimida

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	82,1	105,5	96,0	128,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	33,3	37,4	96,2	112,2	40,6	39,6
Ichimliklar va tamaki	1,2	0,0	2,2 m.	2,9	1,4	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,6	3,6	73,4	138,3	3,2	3,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	3,6	0,1	4650,2 m.	0,0	3,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,1	1,4	19,3	10,9 m.	0,2	1,4
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,6	1,2	11,1	2,1 m.	0,7	1,2
Sanoat tovarlari	23,0	36,5	82,5	158,6	28,0	34,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	8,4	7,3	3,8 m.	86,5	10,3	4,2
Turli xil tayyor buyumlar	8,4	7,8	129,5	92,5	10,2	5,9
Xizmatlar	4,4	6,7	134,3	151,0	5,4	5,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,8 %** ni tashkil etib, ulardan eng yuqorilari oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**39,6 %**), sanoat tovarlari (**34,6 %**) va turli xil tayyor buyumlar (**5,9 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI, 2024-yil yanvar-fevral

XSST bo‘limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	29,0	110,8
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	4,2	81,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1,8	9,5 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,03	2,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari		
To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2,8	2,4 m.
Moy olinadigan urug‘lar va mevalar	0,5	49,6
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	3,6	4 650,2 m.
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar		
O‘simliklar moylari va yog‘lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	1,4	10,9 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,7	4,7 m.
Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	0,2	2,7 m.


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, %
Sanoat tovarlari		
Rangli metal	10,1	6,4 m.
Cho'yan va po'lat	13,0	2,5 m.
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	10,3	71,5
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2,3	169,8
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	5,7	77,4
Elektr mashinalari, aparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	1,0	120,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar, asbob - uskunalar lar va ularning ehtiyot qismlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,6	3,2 m.
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va kiyim-kechak anjomlari	6,8	92,7
Poyafzal	0,5	66,9
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	123,7
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	0,2	2,9 m.
Xizmatlar		
Transport xizmatlari	3,0	133,7
Turizm xizmatlari	2,5	2,1 m.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yilning yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlariga **64,6** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **61,3** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

yanvar-fevral, mln. AQSh
dollari



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2024-yilning yanvar-fevral oylari yakunida eksport bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Rossiya Federatsiyasi (eksport umumiy hajmining **30,9** %) va XXR (**12,9** %) davlatlari yetakchilik qildi. Ulushi yuqori bo'lgan yetti yirik davlatlarning jami eksportdagi ulushi **79,8** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, 2024-yil yanvar-fevral %






SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI, *yanvar-fevral, yillar kesimida*

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Egallab turgan o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Rossiya Federatsiyasi	27,4	32,6	130,2	118,9	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	5,4	13,6	77,3	2,5 m.	5	2
Qozog'iston	9,9	10,2	111,1	103,7	3	3
Tojikiston	9,9	9,5	97,2	96,0	2	4
Turkiya	6,4	7,4	56,3	114,9	4	5
BAA	0,6	6,4	72,7	11,3 m.	20	6
Ozərbayjon	2,6	4,4	77,4	167,2	7	7
Qirg'iz Respublikasi	3,1	3,8	55,3	121,4	6	8
Afg'oniston	1,3	2,7	90,3	2,1 m.	10	9
Hindiston	0,0	1,7	0,0	-	48	10
Ukraina	0,5	1,4	27,4	2,9 m.	22	11
Belarus Respublikasi	1,4	1,2	63,6	82,9	9	12
Eron	0,6	1,2	80,0	2,1 m.	19	13
Turkmaniston	1,2	1,1	175,2	91,3	11	14
Germaniya	0,4	0,9	78,8	2,5 m.	24	15
AQSH	0,6	0,9	85,3	141,2	17	16
Iroq	0,4	0,9	88,3	2,1 m.	23	17
Polsha	0,6	0,7	70,2	105,4	18	18
Gruziya	0,8	0,6	104,7	81,3	15	19
Italiya	0,8	0,4	39,2	54,6	16	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

2024-yil yanvar-fevral, mln. AQSH doll. ¹



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **42,8 %** ulush bilan **45,2** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,1 %** ulush bilan **0,1** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

¹ Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Samarqand viloyati, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024-yil yanvar-fevral oylarida **22,9** mln. AQSh dollarlik **24,0** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2023-yilning mos davriga nisbatan **4,1** mln. AQSh dollariga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (**26,0** %), Turkiya (**13,5** %), XXR (**10,7** %), hamda Ozarbayjon (**10,3** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

2024-yil yanvar-fevral, qiymatga nisbatan o'sish sur'atlari

<p>Uzum yangi uzilgan</p> <p>6,0 mln. AQSh dollari</p> <p>4,0 ming tonna 81,1 % ↓</p>	<p>Meva va rezavorlar</p> <p>6,6 mln. AQSh dollari</p> <p>4,6 ming tonna 146,7 % ↑</p>	<p>Qalampir</p> <p>1,3 mln. AQSh dollari</p> <p>0,4 ming tonna 7,3 m. ↑</p>	<p>Sabzavotlar</p> <p>8,5 mln. AQSh dollari</p> <p>14,5 ming tonna 146,6 % ↑</p>
<p>Uzum quritilgan</p> <p>5,5 mln. AQSh dollari</p> <p>3,7 ming tonna 91,7 % ↓</p>	<p>Kartoshka</p> <p>0,0 mln. AQSh dollari</p> <p>0,0 ming tonna 0,0 % ↓</p>	<p>Yeryong'oq</p> <p>0,5 mln. AQSh dollari</p> <p>0,5 ming tonna 48,6 % ↓</p>	<p>Qovun va tarvuz</p> <p>0,0 mln. AQSh dollari</p> <p>0,0 ming tonna 0,0 % ↓</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI, 2024-yil yanvar-fevral

Davlatlar	Ming tonna	Mln. AQSh dollari	Ulushi, %
 Rossiya Federatsiyasi	5,9	6,0	26,0
 Turkiya	1,9	3,1	13,5
 Xitoy Xalq Respublikasi	2,8	2,5	10,7
 Ozarbayjon	1,4	2,4	10,3
 Ukraina	1,1	1,2	5,2
 Belarus Respublikasi	0,6	1,0	4,4
 Iroq	2,2	0,9	3,8
 Eron	0,7	0,8	3,6
 BAA	2,3	0,7	3,2
 Gruziya	0,9	0,6	2,8
 Polsha	0,6	0,5	2,3
 AQSH	0,1	0,5	2,0
 Brazilya	0,3	0,4	1,7
 Germaniya	0,2	0,3	1,5
 Litva	0,1	0,3	1,4
 Boshqa davlatlar	2,9	1,7	7,5

¹ qiymat ifodasidan



2024-yil yanvar-fevral oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **26,0** %), bu Xitoy Xalq Respublikasi eksport hajmidan **12,5** % ga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2024-yil yanvar-fevral oylari yakuni bo‘yicha **12 179,5 ming**. AQSh dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **11,5 %** ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarish sur‘ati **81,9 %** ni tashqil qildi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor tirikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**54,2 %**), Gilam mahsulotlari (**19,6 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **51** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **17** ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

yanvar-fevral, **ming**. AQSh dollari


		2023-yil	2024-yil
Jami		14 871,0	12 179,5
	Tayyor trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari	7 265,5	6 603,3
	Gilamlar	2 072,0	2 382,5
	Ipak va ipak mahsulotlari	2 751,2	1 083,4
	Naqshli mato	1 142,1	1 021,3
	Paxtadan gazlamalar	676,8	65,5
	Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	963,4	1 023,5

Viloyatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI

2024-yil yanvar-fevral, ulushi foizda



Xizmatlar eksporti hajmi **6,7** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 6,3 % ini tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 51,0 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlar (**44,7** %), safarlar (turizm) xizmatlar (**37,1** %), moliyaviy xizmatlar (**9,6** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**8,6**%) hissasiga to'g'ri kelgan. Bu oyda boshqa ish bilan bo'g'liq xizmatlar amalga oshirilmagan.



SAMARQAND VILOYATINING IMPORT




2024-yilning yanvar-fevral oylarida import hajmi **365,3** mln. AQSh dollarini va 2023-yilning mos davriga nisbatan **127,5** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng yuqori ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (**28,2** %), sanoat tovarlari (**27,9** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**27,2** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

2024-yil yanvar-fevral, ulushi foizda



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024-yilning yanvar-fevral oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **78,5** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **364,6** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar **0,8** mln. AQSh dollariga yetdi.



SAMARQAND VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI, *yanvar-fevral, yillar kesimida*

XSST tarkibi	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Jami import	286,5	365,3	108,3	127,5	100,0	100,0

shu jumladan:

Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28,8	29,0	106,9	100,8	10,0	7,9
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,2	0,0	-	0,0	0,05
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	10,5	12,7	83,7	120,6	3,7	3,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,5	4,8	198,2	86,5	1,9	1,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	10,5	6,7	2,4 m.	64,0	3,7	1,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	85,8	99,2	120,1	115,7	29,9	27,2
Sanoat tovarlari	66,0	102,1	89,5	154,6	23,0	27,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	71,9	102,9	107,9	143,1	25,1	28,2
Turli xil tayyor buyumlar	7,0	6,9	118,9	98,9	2,4	1,9
Xizmatlar	0,5	0,8	2,5 m.	164,2	0,2	0,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI 2024-yil yanvar-fevral


XSST bo'limi nomi	Mln. AQSH dollari	2023-yilga nisbatan, %
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Hayvonlar uchun ozuqalar	10,4	109,8
Meva va sabzavotlar	8,6	2,0 m.
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5,4	47,8
Tirik hayvonlar 03 bo'limdakilarni qo'shgan holda	1,4	149,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	0,2	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	5,6	102,1
Probka va yog'och-taxtalar	1,8	109,3
To'qimachilik tolalari	1,7	3,2 m.
Tabiiy kauchuk	1,4	87,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4,8	95,6
Ko'mir, koks va briketlar	0,03	6,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moyi va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	6,3	61,3
Hayvonlar va o'simliklar moyi va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moyidan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,4	2,6 m.
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	73,1	134,4
Birlamchi shakldagi plastmassalar	11,0	81,4
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	4,7	110,6

XSST bo'limi nomi	Mln. AQSh dollari	2023-yilga nisbatan, %
Sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	70,0	187,5
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	14,1	101,6
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	4,7	173,8
Metalldan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4,2	92,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	45,5	152,7
Metallarni qayta ishlash mashinalari	21,2	22,4 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	14,9	90,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Maxsus ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2,4	96,6
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2,2	83,8
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	1,2	127,8
Poyabzal	0,5	2,5 m.
Xizmatlar		
Transport xizmati	0,8	171,0

2024-yil yanvar-fevral oylarida MDH mamlakatlaridan import ulushi **35,5 %** ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan **1,4 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

yanvar-fevral, mln. AQSh dollari



2024-yil yanvar-fevral oylarida Samarqand viloyati **74** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya, Germaniya, Sloveniya va Hindiston) jami importning **76,2 %** ulushini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI, 2024-yil yanvar-fevral, foizda





SAMARQAND VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI


yanvar-fevral, yillar kesimida

Davlatlar	Mln. AQSh dollari		O'sish sur'ati, %		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Xitoy Xalq Respublikasi	53,2	96,4	105,4	181,1	2	1
Rossiya Federatsiyasi	63,4	91,6	145,2	144,6	1	2
Qozog'iston	37,6	29,2	80,4	77,7	3	3
Turkiya	25,4	28,1	151,9	110,7	4	4
Germaniya	5,4	11,9	98,2	219,8	10	5
Sloveniya	14,2	11,3	140,8	79,2	5	6
Hindiston	5,8	9,7	74,2	166,6	9	7
Polsha	9,2	8,4	227,9	91,2	7	8
Litva	5,1	6,9	89,8	134,7	12	9
Yaponiya	9,9	6,3	124,9	63,8	6	10
Latviya	5,2	5,2	158,6	98,7	11	11
Gruziya	4,0	4,9	88,1	124,6	14	12
Eron	7,2	4,8	88,7	67,4	8	13
Avstriya	2,9	4,3	151,2	146,9	16	14
Bangladesh	3,9	3,8	114,6	99,4	15	15
BAA	0,7	3,2	300,1	455,6	32	16
Tailand	0,0	3,1	1,7	11 148,2	57	17
Niderlandiya	1,9	2,5	50,0	131,2	20	18
Belarus Respublikasi	0,8	2,3	16,7	291,0	31	19
Vengriya	1,7	2,2	70,8	134,4	23	20



SAMARQAND VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

2024-yil yanvar-fevral



2023- y.


2024- y.

ViLOYAT importi tarkibida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **62,0 %** ulush bilan **226,5** mln. AQSh dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shrabot tumani **0,03 %** ulush bilan **0,1** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024-yil yanvar-fevral, hajmi mln. AQSh dollari, ulushi foizda)



2024-yilning yanvar-fevral oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **0,8** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **0,2** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **164,2** % ga ko'paydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (**99,7** %) va Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish, boshqa joyda tasniflanmagan (**0,1** %) boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**0,2** %) ga tegishli bo'ldi.




Xizmatlar importida eng yuqori hajm transport xizmatlari **0,8** mln. AQSh dollarini yoki 99,7 % ini tashkil etgan bo'lsa, qolgan 0,3 % ini boshqa xizmat turlari tashkil etdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024-yil yanvar-fevral oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari hajmi **102,1** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **154,6** % ni tashkil qildi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **27,9** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

2024-yil yanvar-fevral, ulushi foizda

50,5 mln. AQSh doll.
ulushi – 49,5 %



Rossiya
Federasiyasi

27,3 mln. AQSh doll.
ulushi – 26,7 %



XXR

8,6 mln. AQSh doll.
ulushi – 8,4 %



Qozog'iston

7,6 mln. AQSh doll.
ulushi – 7,4 %



Turkiya

3,6 mln. AQSh doll.
ulushi – 3,6 %



Bangladesh



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan va po'lat (**70,0** mln. AQSh dollari), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, boshqa joyda tasniflanmagan tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**14,1** mln. AQSh dollari), Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan (**4,7** mln. AQSh dollari), metallardan tayyorlangan buyumlar boshqa joyda tasniflanmagan (**4,2** mln. AQSh dollari), va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi
Tel. 66-235-65-80